<i>Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich</i>	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
<i>Nosirova Dilnoza Toir qizi</i>	
Funksiya grafigini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
<i>Musurmonova Shahlo G'ulomovna</i>	



Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhraxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons in the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaql Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам.....	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixiotsional holatining tahlili.....	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	
O'qituvchilarda stressni boshqarish ko'nikmalarining dars samaradorligiga ta'siri	2687
Nazarova Sitara Maxamatovna	
Improving Media Competence Development in Future Teachers.....	2689
Urinov Rustambek Yoqubjonovich	
Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari: zamonaviy ta'limda kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishning o'rni	2694
Berdiyeva Nilufar Berdiyev qizi	
Boshlang'ich sinflarda ulush tushunchasini 4K modeli orqali o'rgatish metodikasi	2699
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Abdiqudirova Aziza Shukurboy qizi	
Noto'liq oilalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishi va xulq-atvori.....	2706
Barno Masharipova Erkin qizi, Sabirbaeva Aydana	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2710
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	
Роль рефлексивных свойств в развитии психологической компетентности.....	2715
Рахманова Дилноза Фармановна	
XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli.....	2718
Rajabova Nodirabegim Komilovna	
PhET veb-plattformasi orqali o'quvchilarning fizika fanidan mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish (Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari misolida).....	2720
Axmedov Yodgorbek Olimjonovich	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish – mediatahdidlarning oldini oluvchi omil sifatida.....	2724
Ortiqova Nargiza Akramovna	
Talabalarda aksiologik yondashuvga asoslangan tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning falsafiy-pedagogik negizlari	2729
Abdurazzakova Zebiniso Akmalxon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish	2733
Sanginova Gulnoza Baxodirovna	
Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida raqamli monitoring platformalarini joriy etishning ta'lim sifati va kasbiy rivojlanishga ta'siri	2740
Bisenbaev Islambek Qaynazarovich	

Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda pedagogik yondashuvlar	2744
Kabilova Sevara Rashid qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish.....	2748
Rajabova Nargiza Ahmadovna	
Ложь как социально-психологический феномен: генезис и функции в процессе социализации личности.....	2751
С. Ю. Нишанов	
Формирование личностных и профессиональных качеств директоров: педагогическая деятельность дошкольных образовательных организаций, психологические особенности	2756
Мухторова Заррина Султоновна, Бектошева Динора Зоҳиджон кизи	
Персональные данные директоров дошкольных образовательных организаций: анализ передового зарубежного опыта формирования профессиональных качеств.....	2759
Мухторова Заррина Султоновна, Амридинова Гуласал Аминжоновна	
Inklyuziv ta'limda zamonaviy tibbiy tashxisning o'rni va ahamiyati.....	2762
Raximov Atanazar Karimovich, Yuldashova Iroda Dilshodovna, Mitalova Nargiza Salibaevna	
Tehnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari.....	2765
Abduraimova Gulnoza Sharif qizi	
Matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish	2769
Xolmurzayeva Nigora Abdimurotovna	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish.....	2774
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Harakatlanuvchi robotlarda to'siqlarni aniqlash uchun kalman filtr texnologiyasi	2780
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Raximov Muzaffar Mirzohid o'g'li	
Milliy ertak qahramonlari haykallarini yasash orqali o'quvchilarda badiiy obrazni tahlil qilish metodikasini shakllantirish	2785
Qodirov Bobirjon Botirjonovich	
Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyalari asosida savod o'rgatish jarayonini takomillashtirish	2790
Husenova Aziza Sharipovna, Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi	
Rus tilidagi harakat natijasi holat fe'llarining leksik-semantik guruhlar tuzilishi	2794
Kurbanova Gulzoda Yunusovna	
Nemis tilidagi somatik frazeologizmlar va ularning kommunikativ funksiyalari.....	2797
Mirzakarimov Maxmudjon Ro'ziboyevich	
Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi	2800
Murodov Nodirbek Oybek o'g'li	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatlarini.....	2804
Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich	
Python dasturlash tilida matematik figuralarni chizish metodikasi.....	2809
Rajabova Gulchekhra Salomovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosida yondashuvlarni kompetensiyaviy rivojlantirishdagi ahamiyati.....	2814
Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna	
Bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish.....	2820
Saidova Barno Narzullayevna, Usmonova Sabina Ilxom qizi	
Boshlang'ich sinflarda etnopedagogik namunalardan foydalanish usullari	2823
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi, Sultonova Sevinch Doston qizi	
Психологические методы диагностики правонарушающего поведения в подростковом возрасте	2827
Пардаева Умида Мухтар кизи	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish	2831
U. Y. Axmedova, M. M. Ibrohimova	
XX asr boshlarida buxoro hududida ichki migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlarini	2834
Nuriddinov Abrorbek To'liqin o'g'li	
Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish kompetensiyasi.....	2838
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Saidova Oygun Husenovna	
Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning imkoniyatlari	2841
Tursunova Gulsora Adahamjon qizi	
Ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning samarali metodik tizimini yaratish imkoniyatlari.....	2844
Olimov Timur Xasanovich, Yuldashev Ta'lant Abdinazarovich	
Методические возможности ИКТ-тестирования в контроле учебных достижений учащихся старших классов (по результатам педагогического эксперимента).....	2848
Уразова Марина Ботировна, Асанова Кямиле Усмановна	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2851
Shermumamodova Diyora Nurmuhomad kizi	



Teaching Multi-Rotation Jumps to Female Skaters Aged 10–11 With the Use of the “Rotator” Vestibular Simulator.....	2854
Tokhirova Shokhsanam Farkhod qizi	
Bolalar musiqa maktablarida xalq cholg'ulari darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar: refleksiya, loyiha ishlari va raqamli resurslar orqali kompetentlikni kuchaytirish	2859
Sharipov Sherzod Maqsudovich	
Теоретические основы эстетического воспитания средствами изобразительного искусства будущего учителя (философские и психолого-педагогические основы).....	2862
Дустова Дилдора Собиржановна	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik modelini rivojlantirish tadbiri.....	2868
Rajabova Nodirabegim Komilovna	
Biologiya o'qitish jarayonida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish metodikasi	2873
Sobirova Nilufar Azimboy qizi	
Oliy ta'limda biotexnologiyani o'qitishda mediapedagogika yondashuvining imkoniyatlari	2876
Jumabayeva Aygul Kuatovna	
O'zbekistonda ayollarning ma'naviy faoliyati hamda ijtimoiy faolligi.....	2880
Bakiyeva Muhabbatxon Kamaliddinovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	2883
Qoraboyeva Nargiza Nematjonovna	
Lingvistik diskurslarning matnlararo kognitiv munosabati.....	2886
Karimova Feruza Mo'minovna	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi va muvozanat qobiliyatlarini oshirish	2890
Safarboyev Nodirbek Shavkat o'g'li	
O'tkir Rahmat she'riyatida metaforalarning qo'llanishi.....	2894
Maxammatova Feruza Olimovna	
Tizimli fikrlash kompetensiyasi: tarkibi, shakllanish bosqichlari va baholash mezonlari.....	2898
Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi	
Bolalarda kreativlikni o'yin faoliyati orqali shakllantirish	2902
Tojiyeva Zebuniso Abduvohid qizi, Dilnoza Mutalova Abdurashidovna	
Rauf Parfi she'riyatida metafizik motivlar masalasi	2905
Xursanov Dilshod Baxtiyorovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning sensitiv davrida jismoniy tarbiya darslarida harakatlar tezkorligini oshirish	2908
Atabayeva Sharqiya Farxodovna	
Maktabgacha yoshdagi inklyuziv talimga muxtoj bolalarni kognitiv faoliyatni rivojlantirish.....	2911
Naqibjonova Maftuna Zohidjon qiz	
Критическое мышление студентов: современные методы и подходы	2914
Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна	
Использование инновационных технологий в процессе образования	2917
Эсанова Феруза Хикматилло кизи	
O'quvchilarda jismoniy harakat ko'nikmalarining shakllanish bosqichlari: harakat ko'nikmalarining pedagogik talqini.....	2920
Nematov Baxodirbek Baxtiyor o'g'li	
Sun'iy intellekt davrida ta'lim va ijtimoiy fanlar: bilimdan kompetensiyaga o'tishning yangi modeli	2925
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari mavzusida	2929
Nazarova Marg'uba Gulamovna	
Sun'iy intellekt va inson tarjimasini: poetik-pragmatik adekvatlikning qiyosiy tahlili	2934
Qurbonov Parda Axmedovich	
Elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbga bo'lgan kompetentsiyalarini rivojlantirish	2938
Sulaymonova Nigora Olimjon qizi	
Multimediali hikoyalar asosida bolalarda do'stlik, hamkorlik va empatiyani rivojlantirish	2940
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
Zamonaviy oliy ta'limda falsafa fanini integratsiyalash orqali talabalar ma'naviy kompetensiyasini rivojlantirish.....	2944
Abdullayev Akmal Nasriddinovich	
Folklor asarlarini o'qitishning pedagogik ahamiyati	2948
Djumaniozov Farrux Shavkatovich	
Tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil etishda kreativlikka asoslanishning afzalliklari	2951
Xasanova Shahnoza Omonbayevna	
Abdulla Avloniy asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya	2954
Masharipova Sadoqat Erkinovna	
Zamonaviy ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	2957
Akramova Surayo Renatovna, Naimova O'g'li Alisher qizi	

Muzey ta'limi asosida estetik tarbiyani shakllantirishda integrativ yondashuv.....	2960
Saparboyev Nurbek Tuliboyevich	
Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari orqali yosh avlodda mustaqil va sog'lom fikrlashni rivojlantirish	2963
Sattarov Allabergan Vyacheslavovich	
Faollashtiruvchi ta'lim metodlarini steam yondashuvi asosida takomillashtirish.....	2966
Rajabova Lobar Choriyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kichik folklor janrlari orqali estetik did va axloqiy tarbiyani shakllantirish..	2970
Ikrumova Gulhida Ahmadillo qizi, Abdusalimova O'g'iloy Ismoiljon qizi	
Matematika fanida differensial yondashuv asosida ta'limni individuallashtirish.....	2975
Nurova Vasila Bahodirovna	
Milliy kurash sport turi mutaxassislarini tayyorlash metodikasini takomillashtirish	2979
Aminova Aziza Alidjanovna	
Arab tilida sinonimiya hodisasi	2983
Mamazulunov Husnuddin	
Arab tilini o'qitishda yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlar	2987
Mamajanova Viktoriya	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida nostandart masalalarni yechish usullarini o'rgatish metodikasi	2990
Yuldashev Bahodir Narzullayevich	
Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining tarbiyaviy samaradorligi	2994
Ibragimova Aziza Toshniyazovna	
Ta'limda "kompetensiya" tushunchasi – zamonaviy pedagogik nazariyaning asosiy kategoriyasi sifatida .	2999
Umarov Xusan Abduraximovich	
Umay ona obrazi xususida ayrim mulohazalar	3003
Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna	
Ona tili ta'limining metodik asoslari va rivojlanish bosqichlari	3006
Kurbonova Gulshan Berdimurodovna	
Bolalarda mayda motorika va artikulyatsiyasini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	3011
Mamasharipova Nargiza Elmurod qizi	
Психологическое сопровождение детей 5–7 лет в период перехода из детского сада в школу.....	3015
Ширбачеева Гульчехра Шакировна, Зарипова Екатерина Владимировна	
Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalari	3019
Abdusattorova Durdona Abdullajon qizi	
Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi faoliyati xususida (2021–2022-yillarning qiyosiy tahlili asosida. Yig'ma jild № 4/1–5: 1–6-sahifalar)	3022
Raxmatov Mirjon Mo'minovich	
Ingliz tilini o'qitishda ta'limiy innovatsiyalar: xalqaro tajriba va tahlil	3028
Xayitova Aziza Rahimovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini qadriyat sifatida shakllantirish	3034
Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich, A'loxonov Axadxon Axrorxon o'g'li	
Kasbiy ta'lim jarayonida talabalarning o'quv motivlarini o'rganilishi	3040
Karimjanova Yoqutxon Urinbayevna	
O'zbek adabiyoti ta'limida talabalarning o'quv bilish motivasiyasini faollashtirishning pedagogik- psixologik xususiyatlari	3044
Ortiqova Dildora Begmirzayevna	
Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning korreksion-pedagogik modeli.....	3048
Saxatova Nafisa Miryunus qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	3051
Norqulova Dildora Shavkat qizi	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI QADRIYAT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH

UO'K:373.3.091.3:796

Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

A'loxonov Axadxon Axrorxon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0006-6567-4227>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida shakllantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot umumta'lim maktabi sharoitida tashkil etilgan pedagogik tajriba natijalariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlarida ishtirokida sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan kompleks dastur sinovdan o'tkazildi. Mazkur dastur harakatli o'yinlar, jismoniy mashqlar, fanlararo integratsiya hamda oilaviy sport faoliyatini o'z ichiga oldi. Tadqiqot natijalari tajriba guruhi o'quvchilarida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, sog'lom turmush tarziga ijobiy munosabat va motivatsiyaning sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhi foydasiga ishonchli farqlar mavjudligini tasdiqladi ($P < 0,05$; $P < 0,01$). Olingan natijalar boshlang'ich sinf yoshida sog'lom turmush tarzini shakllantirish samarali pedagogik mexanizmlarga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya, pedagogik tajriba, sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar, jismoniy rivojlanish, qadriyatlar.

Abstract: This article examines the pedagogical aspects of forming a healthy lifestyle among primary school students as a personal and social value. The study is based on the results of a pedagogical experiment conducted in a general education school involving experimental and control groups. A comprehensive health-oriented program was implemented, including physical activities, active games, interdisciplinary integration, and family-based sports activities. The findings demonstrated a significant improvement in physical development indicators, motivation, and positive attitudes toward a healthy lifestyle among students in the experimental group. Statistical analysis confirmed reliable differences in favor of the experimental group ($P < 0.05$; $P < 0.01$). The results scientifically substantiate the effectiveness of a comprehensive pedagogical approach in shaping healthy lifestyle values at the primary school level.

Key words: primary school students, healthy lifestyle, physical education, pedagogical experiment, health-promoting activities, physical development, value formation.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические аспекты формирования здорового образа жизни у учащихся начальных классов как личностной и социальной ценности. Исследование основано на результатах педагогического эксперимента, проведенного в условиях общеобразовательной школы с участием экспериментальной и контрольной групп. В ходе эксперимента была апробирована комплексная программа, направленная на формирование здорового образа жизни, включающая подвижные игры, физические упражнения, межпредметную интеграцию и семейную спортивную деятельность. Результаты исследования показали достоверное улучшение показателей физического развития, мотивации и позитивного отношения к здоровому образу жизни у учащихся экспериментальной группы. Статистический анализ подтвердил наличие значимых различий между экспериментальной и контрольной группами ($P < 0,05$; $P < 0,01$). Полученные данные свидетельствуют о высокой эффективностиности комплексного педагогического подхода в формировании здорового образа жизни у младших школьников.

Ключевые слова: учащиеся начальных классов, здоровый образ жизни, физическое воспитание, педагогический эксперимент, оздоровительная деятельность, физическое развитие, ценностные ориентации.

KIRISH

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida sog'lom turmush tarzi odatlarini erta yoshdan shakllantirish barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va boshqa xalqaro institutlar maktablarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi kompleks dasturlarni joriy etishni



tavsiya etgan bo'lib, ular bolalarni yoshligidanoq jismoniy faollikka jalb etish, sog'lom ovqatlanish madaniyatini singdirish, gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish hamda stressni boshqarishga o'rgatishga qaratilgan. Masalan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kundalik ertalabki jismoniy mashqlar, interaktiv sog'lomlashtiruvchi o'yinlar va oilaviy sport tadbirlari an'anaga aylangan. Xorijiy ilmiy manbalarda bolalarga mo'ljallangan sog'lom turmush tarzi bo'yicha o'yin shaklidagi topshiriqlar, rag'batlantirish mexanizmlari hamda oilaviy hamkorlik usullarini takomillashtirishga doir ijobiy tajribalar qayd etilgan. Biroq ayrim tadqiqotlarda ushbu yo'nalishdagi natijalar yetarli darajada barqaror emasligi, xususan, psixologik omillar va oilaviy muhit ta'sirini yetarlicha hisobga olmaslik natijasida ta'sir kuchining pasayishi ta'kidlanadi. Demak, boshlang'ich bosqichda sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish va ularni yanada chuqurlashtirish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda ham yoshlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, o'quvchilarning muntazam jismoniy mashg'ulotlarda ishtirokini ta'minlash hamda ularni zararli odatlardan himoya qilishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilingan. Ilmiy adabiyotlarda sog'lom turmush tarbiyasiga oid masalalar bilan shug'ullangan mahalliy pedagog va olimlar ham mavjud bo'lib, ular orasida Sh. X. Xankeldiyev, A. A. Abdullayev, T. S. Usmonxo'jayev, X. A. Meliyev, X. P. Uzoqov va boshqalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom hayot odatlarini singdirishga oid tadqiqotlar olib borganliklarini ta'kidlash mumkin.

Shu bilan birga, yetakchi xorijiy tadqiqotchilar M. Bandura, R. Rosenstock va N. K. Janz kabi olimlar sog'lom hayotiy xulq-atvorning psixologik va motivatsion jihatlarini chuqur o'rgangan bo'lib, ularning ishlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish modellariga ilmiy-metodologik asos yaratilgan. Ushbu ilmiy va amaliy ishlanmalar sog'lom turmush tarbiyasi bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ushbu maqolada Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD tadqiqoti doirasida olib borilgan pedagogik tajriba natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarziga ijobiy munosabatni, ya'ni sog'lom hayotni shaxsiy qadriyat sifatida anglash va qadrlash tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi – jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, o'yinlar va oilaviy hamkorlikdan iborat kompleks dastur yordamida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari va qadriyatlarini shakllantirish samaradorligini baholash hamda asosiy ilmiy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot pedagogik eksperiment shaklida, tajriba va nazorat guruhlarini qiyosiy tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Tajriba 2023-2025-yillarda Farg'ona shahridagi 23-umumiy o'rta maktabning 1-4-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi. Har bir sinf parallel ravishda ikkiga bo'linib, bittasi nazorat guruhi (NG), ikkinchisi tajriba guruhi (TG) sifatida belgilandi. Tadqiqotda jami 200 nafarga yaqin 7-10 yoshli o'quvchi qamrab olindi (har bir sinfda 25-30 nafardan bo'lib, guruhlar taxminan teng taqsimlandi). Tajriba guruhi o'quvchilari bilan maxsus sog'lomlashtiruvchi dastur joriy etildi, nazorat guruhida esa maktabning amaldagi jismoniy tarbiya darslari va umumiy tartibi saqlab qolindi. Tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan dastur "Salomatlik yo'li" deb nomlanib, u bir nechta integratsiyalashgan pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga oldi. Jumladan, harakatli o'yinlar ("Quvnoq startlar" estafetalari, "Harakatli ertak"lar, sport va musobaqa elementlari), sog'lom turmush mazmunini singdiruvchi fanlararo topshiriqlar (matematika, tasviriy san'at, atrof-muhit fanlariga sog'lomlik mavzularini integratsiya qilish), oilaviy sport tadbirlari va musobaqalari (ota-onalar ishtirokidagi estafetalar va sayllar), bolalarni ruhlantiruvchi rag'bat tizimi ("Sog'lom haftaning yetakchisi" nishonlari, kichik sovg'alar), shuningdek, ortiqcha ekran va gadjetlardan foydalanishni cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar kompleks tarzda tatbiq etildi.

Ushbu yondashuv sog'lom turmush tarzini faqat jismoniy tarbiya darslari doirasida emas, balki o'quvchilarning kundalik hayotiga chuqur singdirishni ta'minladi. Nazorat guruhi esa faqat davlat dasturiga muvofiq an'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan cheklanib, ularda qo'shimcha o'yinlar, oilaviy tadbirlar yoki rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilmadi. Tajriba har bir sinf guruhi uchun ikki yilgacha davom etdi (masalan, 1-2-sinflar yoki 3-4-sinflar davri). Jarayon bosqichma-bosqich tashkil etilib, dastlabki bosqichda har ikkala guruh o'quvchilarining boshlang'ich holati sog'lom turmush tarziga oid bilim, munosabat va ko'nikmalar diagnostik so'rovnomalari, suhbatlar hamda jismoniy tayyorgarlik testlari orqali aniqlandi. Asosiy bosqichda tajriba guruhida kompleks dastur izchil tatbiq etilib, oraliq monitoringlar har uch oyda o'tkazib borildi. Yakuniy bosqichda esa tajriba va nazorat guruhlarida takroriy test va so'rovlar o'tkazilib, o'zgarishlar tahlil qilindi.

Jismoniy rivojlanishni baholash uchun standart nazorat testlari tanlandi:

- tezlikni aniqlash uchun 30 metr va 60 metrda yugurish vaqti;
- qo'l kuchi va chidamlilikni baholash uchun yotgan holatda qo'llarni bukib-yozish mashqlari;



- mushak kuchi va koordinatsiyani aniqlash uchun joyidan turib va yugurib kelib uzunlikka sakrash;
- tezkorlik va chaqqonlik uchun "3×10 m" shuttle yugurish testi; shuningdek, 150 g og'irlikdagi koptokni uzoqqa uloqtirish mashqlari.

Barcha testlar tajriba boshida va yakunida o'tkazilib, har bir o'quvchining natijalari qayd etildi. Sog'lom turmush tarzi bo'yicha bilim va munosabatlarni aniqlash maqsadida muallif tomonidan tuzilgan savolnoma va suhbat savollari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlarning ishonchligi statistik tahlil orqali tekshirilib, natijalar tajriba va nazorat guruhlarida Student t-kriteriyasi asosida taqqoslandi hamda farqlarning ahamiyatlilik darajasi $P < 0,05$ va $P < 0,01$ mezonlari bo'yicha baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba yakuniy natijalari tajriba guruhi foydasiga ijobiy o'zgarishlarni yaqqol ko'rsatdi. Jismoniy tayyorgarlik testlari bo'yicha tajriba guruhi bolalarining o'rtacha ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi (quyidagi 1-jadvalga qarang).

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarida bir yillik jismoniy tayyorgarlik natijalari o'zgarishining solishtirma ko'rsatkichlari

Nazorat testi	Nazorat guruhi: o'sish (%)	Tajriba guruhi: o'sish (%)	Farqning ahamiyati (P)
30 m.ga yugurish tezligi	+3% tezlashuv	+6% tezlashuv	($P < 0,01$)
60 m.ga yugurish tezligi	o'zgarish sezalarsiz	+6% tezlashuv	($P < 0,05$)
Qo'lni bukib-yozish (marta)	+5% ko'payish	+7-8% ko'payish	($P < 0,05$)
3×10 m chaqqonlik yugurish	+3% tezlashuv	+5% tezlashuv	($P < 0,05$)
Joyidan uzunlikka sakrash	+5% uzunroq	+8% uzunroq	($P < 0,01$)

1-jadvalda ayrim muhim ko'rsatkichlar bo'yicha ikki guruhda bir yil davomida kuzatilgan o'zgarishlar qiyosiy ravishda keltirilgan. Jadvaldagi o'sish foizlari tajriba boshidagi va yakunidagi o'rtacha natijalar orasidagi nisbiy farqni ifodalaydi. Tajriba guruhida barcha asosiy testlar bo'yicha sezilarli ijobiy o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida ayrim ko'rsatkichlar deyarli o'zgarmagan yoki statistik jihatdan ishonchsiz darajada qolgan. Masalan, 30 metrlik qisqa masofaga yugurishda tajriba guruhi bolalarining tezligi o'rtacha 6% ga oshib, ularning natijalari $P < 0,01$ darajada yaxshilandi, nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich atigi 3% ga o'zgargan bo'lib, ahamiyatli darajada emas. Xuddi shunday, uzoqroq masofa – 60 m.ga yugurish testida nazorat guruhida sezilarli siljish qayd etilmagan (hatto vaqtlarda biroz pasayish kuzatilgan), tajriba guruhida esa 6% tezlashuvga erishilib, $P < 0,05$ darajada muhim farq aniqlangan. Kuch va chidamlilik ko'rsatkichi bo'lgan qo'llarni bukib-yozish mashqida bir yil davomida tajriba guruhi bolalari 7–8% ko'proq takror bajarish darajasiga erishgan bo'lsa (nazorat guruhida 5%), mazkur farq ham statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlangan. Joyidan turib uzunlikka sakrash natijalari tajriba guruhida o'rtacha 8% ga yaxshilanib, sakrash masofasi sezilarli oshgan bo'lsa, nazorat guruhida atigi 5% atrofida o'sish kuzatilgan va bunday o'zgarish statistik jihatdan ishonchsiz hisoblanadi. Ushbu raqamlar tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan dastur jismoniy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tajriba davomida o'quvchilarning munosabat va xulq-atvorida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Dastlabki so'rov natijalariga ko'ra, sog'lom turmush tarzi odatlariga ega bo'lgan o'quvchilar ulushi har ikkala guruhda ham past bo'lgan (masalan, "har kuni jismoniy mashq qilaman" deb javob berganlar 35% atrofida). Tajriba yakunida esa tajriba guruhida ushbu ko'rsatkich keskin oshdi: o'quvchilarning 70–75% endilikda o'zini kundalik jismoniy faollikka odatlangan deb hisoblaydi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich atigi 50% atrofida qolgan. Xuddi shuningdek, ota-onalari bilan birga muntazam sport tadbirlarida qatnashib turadigan bolalar ulushi tajriba guruhida 40–45% ga yetgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 15% ni tashkil etgan. Sog'lom turmush tarziga zid bo'lgan "passiv" odatlar (masalan, kompyuter qarshisida juda uzoq vaqt o'tirishni normal holat deb bilish) tajriba guruhida keskin kamaygan bo'lib, bunday noto'g'ri qarashni bildirganlar ulushi 15–20% gacha tushgan, nazorat guruhida esa hanzugacha 40–50% o'quvchi buni muammo sifatida baholamagan. Eng e'tiborli jihati shundaki, tajriba yakunida o'quvchilarning "Salomatlik – eng asosiy qadriyat" degan fikrga qo'shilish darajasi tajriba guruhida juda yuqori bo'lgan: so'rovnomalarda tajriba guruhi o'quvchilarining 80–85% sog'lom bo'lishni hayotdagi eng muhim boyliklardan biri sifatida baholagan, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 55% atrofida qolgan. Mazkur farq eksperiment natijasida bolalar ongida sog'liq haqidagi tushuncha va qadriyatlarga doir munosabat sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi ($P < 0,01$ darajada ahamiyatli).

Umuman olganda, tajriba guruhi o'quvchilari sog'lom turmush tarzi bo'yicha bilim, ko'nikma va motivatsiya jihatidan nazorat guruhiga nisbatan ancha ilgari ketdi. Nazorat guruhida ham yosh o'tishi bilan ayrim



ko'rsatkichlarda tabiiy ijobiy o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ularning ko'lami va barqarorligi tajriba guruhidagiga qaraganda past bo'ldi. Ikki yillik pedagogik ta'sir natijasida tajriba guruhi bolalarida sog'lom odatlarga rioya etishga nisbatan ichki ehtiyoj shakllandi va sog'lom turmush tarzini qadrlash hissi mustahkamlandi, nazorat guruhida esa an'anaviy yondashuv bunday darajadagi natijani ta'minlamadi. Olingan natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar yuqori samara berishini tasdiqlaydi. Tajriba guruhida qo'llangan pedagogik strategiyalar – jismoniy faollikka yo'naltirilgan o'yinlar, bolalarni qiziqitirish va rag'batlantirish usullari, ota-onalar ishtirokini ta'minlash hamda o'quv jarayoniga sog'lomlik mavzusini integratsiya etish – birgalikda bolalarda sog'lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu topilmalar xalqaro ilmiy tamoyillar bilan hamohangdir. Xususan, JSST tomonidan ilgari surilgan "Sog'lomlashtiruvchi maktab" konsepsiyasi aynan shunday ko'p qirrali yondashuvni nazarda tutadi va tadqiqotlar bunday maktab dasturlari o'quvchilarning jismoniy faolligi, to'g'ri ovqatlanishi hamda sog'lom odatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Maktab tizimi bolalar sog'lig'ini mustahkamlash uchun eng qulay ijtimoiy muhit hisoblanadi, chunki bolalar kunning asosiy qismini maktabda o'tkazadilar va o'qituvchilar ularning bilimi, munosabati hamda hayotiy ko'nikmalariga uzluksiz ta'sir ko'rsata oladilar. Ushbu tajribada ham aynan o'qituvchilar va ota-onalarning uyg'un sa'y-harakatlari orqali bolalarda sog'lom turmush tarziga nisbatan barqaror qiziqish va ijobiy motivatsiya shakllantirildi.

Natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, boshlang'ich maktab yoshida sog'lom turmush tarzi intervensiyalari bo'yicha o'tkazilgan izlanishlar qator musbat xulosalarni ko'rsatadi. Jumladan, Britaniya va AQSh olimlari tomonidan 8-9 yoshli bolalar bilan o'tkazilgan 10 haftalik sog'lom turmush intervensiyasi qisqa muddatda bolalarning tana vazni indeksini sezilarli darajada yaxshilagan, biroq uzoq muddatli natijalarni saqlab qolish uchun bunday dasturlarni muntazam davom ettirish zarurligini qayd etgan. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda ota-onalar ishtiroki va oilaviy muhitning qo'llab-quvvatlashi muhim omil ekani ta'kidlanadi. Ota-onalar jalb etilgan maktab dasturlari bolalarda vazn nazorati va sog'lom odatlarni shakllantirishda yanada samarali bo'lgani kuzatilgan. Bizning tadqiqotda ham ota-onalarni jarayonga jalb qilish orqali bolalarda uy sharoitida sog'lom turmush amaliyotlarini qo'llash ko'nikmalari shakllantirildi.

Yana bir muhim jihat – motivatsiya va munosabatlarning o'zgarishidir. Maktab sog'lomlashtirish dasturlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning ichki motivatsiyasi hamda sog'lom bo'lishga bo'lgan ishonchini oshirish bilan bog'liq. Psixologik nazariyalarga ko'ra, bolalarning sog'lomlik haqidagi qarashlari va munosabatlari ijobiy tomonga o'zgargan sari ularning xatti-harakatlari ham shunga mos ravishda shakllanadi. Masalan, Reazonli harakatlar nazariyasi yoki Rejalashtirilgan xulq nazariyasiga ko'ra, sog'lom turmushga nisbatan ijobiy munosabat bolalarning keyingi faoliyatida sog'lom odatlarni tanlash ehtimolini oshiradi. Bizning tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba guruhida "salomatlik asosiy qadriyat" degan e'tiqod 80-85% bolalarda shakllandi va bu holat ularning kundalik xulq-atvorida, jumladan, jismoniy faollikning ortishi, ishtahaning yaxshilanishi kabi o'zgarishlarda namoyon bo'ldi. Ushbu natijalar avvalgi tadqiqotlarda aniqlangan qonuniyatlarni tasdiqlaydi: maktabda sog'lom turmush tarzi bo'yicha berilgan ta'lim va tarbiya bolalarning dunyoqarashini o'zgartirib, sog'lom hayot tarzini ongli tanlovga aylantiradi.

Ta'kidlash joizki, bizning eksperiment ikki yil davom etgani va ko'plab faoliyat turlarini qamrab olgani sababli erishilgan o'zgarishlar nisbatan barqaror va keng qamrovli bo'ldi. Aksariyat xorijiy dasturlar qisqa muddatli bo'lib, ularning ta'siri vaqt o'tishi bilan susayishi mumkin. Shu bois sog'lom turmush tarzini shakllantirish doimiy e'tibor talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni uzluksiz rag'batlantirib borish, muntazam monitoring o'tkazish hamda bosqichma-bosqich yangi metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning tajribada 3 oylik sikllar asosida monitoring olib borish va har bir bosqichda yangi komponentlarni kiritish ijobiy natija bergani aniqlandi. Ushbu yondashuv izchil davom ettirilsa, o'quvchilarning ulg'aygan sari sog'lom turmush tarziga sodiq qolish ehtimoli yuqori bo'ladi. Aksincha, dastur to'xtatilgan taqdirda ayrim odat va munosabatlarning susayishi mumkinligi xorijiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Jumladan, qisqa muddatli intervensiyalardan 6 oy o'tib bolalarning ayrim ko'rsatkichlari yana pasaygani aniqlangan. Demak, sog'lom turmush tarzi tarbiyasida davomiylik va izchillik ta'minlanishi lozim.

Yana bir e'tiborli masala – sog'lom turmush tarzini singdirishda fanlararo integratsiyaning samaradorligidir. Bizning tajribada matematika, tasviriy san'at va ona tili fanlarida sog'lomlik mavzusida ijodiy topshiriqlar berilganda, o'quvchilar ularni qiziqish bilan qabul qildilar. Masalan, matematika darsida "5 soniyada 2 marta sakrash" kabi mashqlar o'yin shaklida tashkil etilganda, bolalarning 72% ushbu faoliyatni "juda yoqdi" deb baholadi. Bu holat sog'lom turmush tarzi g'oyalarni boshqa fanlar orqali ham samarali singdirish mumkinligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv bolalarda zerikishni yuzaga keltirmaydi, aksincha, ularning qiziqishini oshiradi. Natijada sog'lomlik konsepsiyasi faqat jismoniy tarbiya darsi bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarning umumiy dunyoqarashi va tafakkurining tarkibiy qismiga aylanadi. Ushbu xulosalar xorijiy tadqiqotlar bilan ham mos keladi, chunki ko'p yillik pedagogik tajribalar fanlararo integratsiya va o'yinli interfaol metodlar bolalarning motivatsiyasini oshirishini hamda ta'lim samaradorligini kuchaytirishini tasdiqlagan.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini qadriyat sifatida shakllantirish mumkin va zarur ekani bizning tadqiqot natijalarimizda o'z tasdig'ini topdi. Ilmiy xulosalar sifatida quyidagilarni qayd etamiz. Kompleks yondashuv samaradorligi shundan iboratki, maktabda sog'lom turmush tarzi odatlarini shakllantirishda faqat jismoniy tarbiya darslari doirasida qolib ketmaslik lozim. Jismoniy mashqlarni harakatli o'yinlar orqali qiziqarli shaklga keltirish, sog'lomlik mavzusini boshqa fanlarga integratsiya qilish, oilaviy sport mashg'ulotlarini tashkil etish va bolalarni rag'batlantirib borish kabi komponentlarni o'z ichiga olgan kompleks pedagogik yondashuv yuqori natija beradi. Bizning tajriba guruhimizda aynan shunday integrativ dastur sababli 2 yil davomida bolalarning sog'lom turmush tarziga munosabati va jismoniy ko'rsatkichlari nazorat guruhidagiga nisbatan ancha yaxshilandi.

Yosh davrida sog'lom qadriyatlarni shakllantirish imkoniyati nuqtayi nazaridan 7–10 yosh davri sog'lom hayot tarzi asoslarini singdirish uchun juda qulay davr hisoblanadi. Bolalar bu yoshda har qanday faoliyatni o'yin tarzida qabul qilishga moyil bo'lib, kattalarning fikr-mulohazalariga sezgir bo'lishadi. To'g'ri yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tufayli bolalar sog'lom turmush tarzini quvonchli va foydali jarayon sifatida qabul qila boshlaydi, natijada ularning ongida salomatlik barqaror qadriyatga aylanishi mumkin ^[44]. Biz kuzatgan natijalarga ko'ra, kichik maktab yoshidayoq bolalarning aksariyatida sog'lom bo'lishga intilish, jismoniy faollikdan zavqlanish va sog'liqni hayotiy ahamiyatga molik bo'ylik deb bilish hissini shakllantirish mumkinligi isbotlandi.

Oilaviy muhit va rag'batlantirishning ahamiyati shundaki, ota-onalar va oila ishtirokisiz faqat maktabning sa'y-harakatlari bilan cheklanish yetarli emas. Tadqiqotda isbotlandiki, agar ota-onalar ham jarayonga jalb etilsa (masalan, oilaviy sport kechalari, birgalikda sayrlar, bola yutuqlarini uy sharoitida rag'batlantirish), bolalarning motivatsiyasi ancha ortadi va ular uyda ham sog'lom odatlarni davom ettiradi. Oilaviy tarbiya va maktab hamkorligi natijasida bolalarda sog'lom turmush tarzi oila qadriyatiga ham aylanadi, bu esa ularning hayot tarzi barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, rag'bat mexanizmlari (maqrov, nishon va sovg'alar, jamoaviy musobaqalarda g'oliblik) bolalarning ijobiy emotsiyalarini kuchaytirib, sog'lom odatlarni mustahkamlashda muhim turtki bo'ldi. Jismoniy rivojlanish va sog'lom odatlar uyg'unligi jihatidan sog'lom turmush tarzi dasturi nafaqat nazariy tushunchalar va motivatsiyani, balki bolalarning jismoniy rivojlanishini ham oshirdi. Tajriba guruhi o'quvchilarida tezlik, kuch, chaqqonlik kabi ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgani kuzatildi (masalan, 30 m ga yugurish tezligi 6% ga oshib, $P < 0,01$ darajada yaxshilandi). Demak, sog'lom turmush tarzi odatlarini shakllantirish jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi ham yaxshilanib boradi, bu holat sog'lom turmush tarbiyasining ikki tomonlama foydasini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- 1) boshlang'ich sinflar uchun darsdan tashqari sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar va "sog'lom haftalik" kabi maxsus dasturlarni joriy etish lozim, bunda o'yin, musobaqa va ijodiy topshiriqlar uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiq;
- 2) ota-onalar ishtirokini ta'minlash uchun muntazam oilaviy sport tadbirlarini (masalan, "Oilaviy spartakiada"lar) tashkil etish hamda uyga beriladigan sog'lom turmush tarziga oid vazifalarni ishlab chiqish zarur;
- 3) har bir maktabda sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi materiallar, stendlar va sinf soatlari orqali sog'lom odatlar madaniyatini targ'ib etish ishlari doimiy olib borilishi lozim;
- 4) o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida sog'lom turmush tarzini boshlang'ich sinflarda singdirish bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalarni (interfaol o'yinlar, STEAM integratsiyasi, raqamli ilovalar orqali kuzatuv va boshqalar) o'rgatish zarur, zero zamonaviy o'qituvchi sog'lom hayot tarzi targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak;
- 5) sog'lom turmush tarbiyasi bir martalik loyiha emas, balki uzluksiz jarayon ekani inobatga olinib, u maktabgacha ta'limdan boshlab yuqori sinflargacha izchil davom ettirilishi tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich maktab davridanoq sog'lom turmush tarzini qadriyat sifatida shakllantirish bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Sog'lom va faol bolalar nafaqat jismonan baquvvat bo'lib ulg'ayadi, balki ular intizomli, irodali, jamiyatda faol va baxtiyor shaxs bo'lib kamol topadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonining bosh maqsadlaridan biri sifatida sog'lom avlodni voyaga yetkazish vazifasi doimo ustuvor bo'lib qoladi. Bizning tadqiqot natijalari esa ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar samarasini ilmiy jihatdan asoslab berdi hamda boshlang'ich ta'lim tizimida keng qo'llash uchun "Salomatlik yo'li" kabi dasturlarni tavsiya etish mumkinligini ko'rsatdi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allahonov A. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini rivojlantirish. PhD dissertatsiyasi. Farg'ona davlat universiteti, 2025.
2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Health Promoting Schools Framework. 2014 (JSST hisobotidan).
3. Brown E. C. va boshq. Primary School Children's Health Behaviors, Attitudes, and BMI After a 10-Week Lifestyle Intervention. Frontiers in Pediatrics, 2018.
4. Hurrelmann T. Health Education and Promotion in Children: Strategies and Experiences. Berlin: Springer, 2010 (Hurrelmann nazariyasi).
5. Xankeldiyev Sh. X. va boshq. Boshlang'ich sinfda jismoniy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari. T.: Maorif nashriyoti, 2019 (mahalliy tadqiqot).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.